# O‘ZBEK ADABIYOTIDA ODDIY ASKAR OBRAZI VA UNING BADIIY TALQINI

**Bozorova Lobar Bazarbayevna**
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email:bozorova lobar@gmail.com

**Annotatsiya:** Oddiy askar – adabiyot va tarix chorrahasidagi obraz. Bu obraz dunyo adabiyotining eng qadimiy va eng dolzarb obrazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida oddiy askar obrazi talqinlari haqida fikr yuritiladi

***Kalit so`zlar:*** *timsol, birinchi jahon urishi, oddiy askar, tarix, troya, jangovarlik, realistik obraz, psixologik tasvir, hayot va o'lim.*

**Abstract:** The ordinary soldier – a figure at the crossroads of literature and history. This figure is considered one of the oldest and most relevant images in world literature. This article discusses interpretations of the image of the ordinary soldier in Uzbek literature.

**Keywords:** *symbol, First World War, ordinary soldier, history, Troy, militancy, realistic image, psychological depiction, life and death.*

**Аннотация.** Образ простого солдата находится на пересечении литературы и истории. Этот образ считается одним из самых древних и в то же время наиболее актуальных в мировой литературе. В данной статье рассматриваются интерпретации образа простого солдата в узбекской литературе.

**Ключевые слова:** символ, Первая мировая война, простой солдат, история, Троя, воинственность, реалистический образ, психологическое описание, жизнь и смерть

**Kirish -** XX asr insoniyat tarixida nafaqat taraqqiyot va ilm-fanning ulkan yutuqlari bilan, balki mislsiz fojealar – ikki jahon urushi bilan ham esda qoldi. Bu urushlar nafaqat siyosiy chegaralarni o‘zgartirdi, balki butun dunyo xalqlarining ruhiy hayotiga, ma'naviy qiyofasiga ham beqiyos iz qoldirdi. Jahon urushlari insoniyat tarixida ilgari bunday ko‘rilmagan talafotlarni keltirib chiqardi: millionlab begunoh odamlarning hayoti yarim yo‘lda so‘ndi, shaharlar vayronaga aylandi, madaniy merosning ko‘p qismi yo‘qoldi.

Birinchi jahon urushi insoniyatga o‘zining achchiq saboqlarini bergan bo‘lsa, Ikkinchi jahon urushi bu fojealarni yanada chuqurlashtirdi. Uzoq yillar davom etgan janglar insoniy qadriyatlarni poymol qildi, mehnatkash xalqlarni og‘ir sinovlarga soldi. Urush maydonlarida kechgan janglar faqat askarlar taqdirini emas, balki butun boshli xalqlar hayotini o‘zgartirib yubordi. Millionlab insonlar qochqinlikka yuz tutdi, ocharchilik, qashshoqlik va og‘ir ruhiy iztiroblar odamlarning ongiga o‘chmas darajada muhrlandi.

**Adabiyotlar tahlili -** Shu o‘rinda O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar asarida” aytib o‘tilgan quyidagi so‘zlar e'tiborga molik: “Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mimkin. Lekin g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘la olmaydi” [1] [1:288]

Eng og‘riqli jihati shundaki, bu urushlarning talafotlari faqat moddiy yo‘qotishlar bilangina cheklanib qolmadi. Ular insoniyat ruhiyatiga ham katta zarba berdi. Urush yillarida bolaligining eng beg‘ubor lahzalaridan ayrilgan avlod voyaga yetdi, onalar farzandlaridan, farzandlar esa ota-onalaridan judo bo‘ldi. Insoniyat o‘zini o‘z qo‘li bilan vayronaga aylantirayotganligini anglab yetdi. Bu davrda yaratilgan ko‘plab badiiy asarlar urushning naqadar dahshatli oqibatlarini, inson qalbiga solgan og‘ir jarohatlarini tasvirlab berdi. Shu bois jahon urushlari tarixga faqat yovuz kuchlarning to‘qnashuvi sifatida emas, balki insoniyatning o‘z taqdirini o‘zi qanday o‘zgartira olishi, qanday vayronaga ham, qanday bunyodkorlikka ham qodir ekanligining achchiq dalili sifatida kirdi. Bu fojealardan insoniyat katta saboq oldi: tinchlikning qadrini, inson hayotining bebaho ekanligini chuqur anglashga majbur bo‘ldi. Bugungi avlod uchun jahon urushlari tarixdan o‘rganiladigan saboq, tinchlik va hamjihatlik esa eng ulug‘ ne'matdir.

**Tadqiqot metadologiyasi -** Maqolada o'zbek adabiyotida oddiy askar muamosi talqinlari muhokama qilinadi. Askar obrazi orqali nafaqat jang maydonlaridagi qahramonliklar, balki insoniyatning eng qiyin sinovlaridagi ma'naviyati, qahramonligi, zaifliklari va umidlari ifodalanishi tasviri o'rganild

**Tahlillar va natijalar -** O'zbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi davrida yaratilgan oddiy askar obrazi xalqning mardligi, fojialarga bardosh berish qobiliyati va mustaqillik, ozodlik yo'lidagi kurashining yorqin timsoli bo'lib qoldi. O'zbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi davri asarlari xalqning og'ir sinovli taqdirini, askarning qiyofasi orqali butun millatning qahramonligini yoritishga xizmat qildi.

G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" asari[2:15] front ortidagi bolalar hayotini tasvirlar ekan, unda oddiy askar obrazi bevosita ko'rinmasa-da, ularning ota-onasi, Vatan himoyachilari qiyofasida mavjuddir. Bu asar orqali oddiy askar – xalq farzandi – millatning ertangi kuni uchun kurashayotgan, ammo uning orqasida qoldirgan oilasi ham buyuk sinovlardan o'tayotganini ko'ramiz. G'afur G'ulom she'riyatida askar obrazi vatanparvarlik va insoniyatsevarlikni mujassam etgan. G'afur G'ulom askar obrazini insoniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida ko'rsatadi.

Hamid Olimjonning she'riyati[3:35] ham urush davrida xalqni ruhlantirish, askarlarning matonatini madh etishga xizmat qilgan. Uning qahramonlik va sadoqat ruhidagi she'rlarida oddiy askar millat g'ururining timsoli sifatida ulug'lanadi.

Uyg'un va Mirtemir ijodida ham urush mavzusi keng o'rin oldi. Ularning she'r va dostonlarida askarning Vatanga sadoqati, qo'rqmasligi, dushmanga qarshi mardona kurashi tasvirlanadi. Mirtemirning "O'zbekiston" [4:62] she'ri Vatan va uning farzandlari - oddiy askarlarning botirligini kuylaydi.

Urushdan keyingi yillarda esa adabiyotda askar obrazi yangicha talqin topa boshladi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Adolat manzili" kabi asarlari tarixiy mavzuda bo'lsa-da, ulardagi qahramonlar ruhiyati urushni ko'rgan avlodning kechinmalariga hamohangdir.

Ozod Sharafiddinov va boshqa adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, urush davrida yaratilgan asarlarda oddiy askar timsoli qahramonlik, xalqona sadoqat va Vatanni sevish fazilatlari bilan uyg'unlashgan. Keyingi yillarda esa bu obraz xalqning tinchlikdagi mehnatkash timsoliga aylangan.

Demak, o'zbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi davri va keyingi yillarda oddiy askar obrazi:

–urush maydonidagi jasorat timsoli;

–front ortidagi oilaning tayanchi;

–xalqning birligi va sabr-toqatini ifodalovchi;

tinchlik davrida esa mehnatkash, Vatan ravnaqiga hissa qo'shuvchi qiyofa sifatida keng talqin qilindi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida[5:28] frontdagi oddiy jangchilarning hayoti, ularning qiyin kunlari, ammo shu bilan birga umidlari va orzulari aks etadi. Uning "Og'riq tishlar" hikoyasida askarning jang maydonida ham o'z oilasi va yurtini eslashi, uning oddiy odam ekanligi ta'kidlanadi.

Tog'ay Murod asarlarida urushning og'ir izlari va askarning psixologik portreti chuqur yoritilgan. Uning "Otamdan qolgan dalalar" romanida urushdan qaytgan askarning tinch hayotga moslashishdagi qiyinchiliklari, psixologik travmalari haqqida so'z yuritiladi.

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar"[1:54] romanida urush va tinchlik davridagi oddiy askar hayoti, uning oilaviy baxti va dardlari haqqida hikoya qilinadi. Bu asarda askar obrazi orqali urushning oddiy odamlar hayotiga ta'siri ko'rsatiladi. Uning bu

romani xalqning urushdan keyingi og‘ir hayoti, oddiy insonlarning sabr-toqati va bardoshini ochib beradi.

Zamonaviy adabiyotda ayol askar obrazi ham muhim o‘rin egallaydi. Bu obraz orqali nafaqat jangovar vazifalar bajarayotgan ayol, balki urush sharoitida ona, xotin, singil sifatidagi murakkab psixologik holatlari aks etadi. Ayol askar obrazi gender rollari, jasorat va noziklik paradokslarini ifodalaydi. Ayol kishi askar obrazida tasvirlangan asarlar adabiyotda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Odatda urush mavzusi erkaklarning qahramonligi, ularning sabr-toqati va jasorati orqali ko‘proq ochib beriladi. Biroq ayolning ham askar sifatida tasvirlanishi badiiy asarga alohida ta’sirchanlik, chuqurlik va samimiylik baxsh etadi. Chunki ayol obrazi nafaqat jangchi, balki mehribon, hayotbaxsh, onaona timsoli sifatida ham o‘quvchida ikki tomonlama tasavvur uyg‘otadi. Shunday asarlarda ayol askar obrazi bir vaqtning o‘zida ham jangchi, ham ona, ham sevuvchi, ham sabrli inson sifatida ko‘rsatiladi.

Jahon adabiyotiga nazar tashlansa, Ikkinchi jahon urushi davrida ayollar qator erkaklar bilan birga frontda jang qilgani, hayotini qurbon qilgani ko‘plab asarlarda aks etgan. Masalan, sovet adabiyotida Zoya Kosmodemyanskaya singari tarixiy shaxslar obrazlari qahramonlik ramzi sifatida badiiy asarlarda o‘z ifodasini topgan. Aleksandr Fadeyevning “Yosh gvardiya” asarida ayol qahramonlarning vatanparvarligi, matonati va qo‘rqmasligi asosiy g‘oyani boyitgan. G‘arb adabiyotida ham ayolning jangchi sifatida maydonga chiqishi haqida yozilgan asarlar mavjud. Bu obrazlarda ayolning sabr-bardoshi, or-nomusi, yurt va oila uchun o‘zini qurbon qilishi o‘quvchini larzaga soladigan darajada tasvirlanadi.

O‘zbek adabiyotida ham Ikkinchi jahon urushi mavzusiga oid asarlarda ayol askar obrazi alohida o‘rin tutadi. Aslida o‘zbek adabiyotida ayolning urush davridagi jasorati ko‘pincha ramziy talqinda ifodalangan: ba’zan u haqiqatan qurol ko‘tarib jang qiluvchi qahramon bo‘lsa, ba’zan esa orqa frontdagi mehnat fidoyisi sifatida askarlikka xos fazilatlarni mujassamlashtirgan holda tasvirlanadi. Saida Zunnunovaning she’rlari, Zulfiya ijodi, urush davri adabiy matbuotida chop etilgan ko‘plab asarlar buning yorqin dalilidir. Bu asarlarda ayol askarning qudrati, matonati, yurakdagi orzulari va ayni paytda ayollikka xos nozikligi badiiy ranglar bilan ifodalanadi.

Ayol askar obrazining badiiy talqinida bir necha muhim jihatlar mavjud. Avvalo, qahramonlik va fidoyilik eng asosiy yo‘nalish sifatida ko‘zga tashlanadi. Ayol qahramon jang maydonida erkaklar bilan teng kurashadi, uning jasorati hech qanday istehzoga yoki shubhalarga sabab bo‘lmaydi. Ikkinchi jihat – mehribonlik va insoniylikdir. Erkak askarlar ko‘proq qahramonlikning tashqi belgisi, jangovar ruh orqali gavdalantirilsa, ayol askar obrazi ko‘pincha insoniylik, hayotga bo‘lgan ishonch, mehr va ona ruhi bilan uyg‘unlashtiriladi. Uchinchidan, ayol obrazi orqali urushning fojialari yanada chuqurroq yoritiladi. Chunki ayol qahramon ko‘pincha sevgidan, oiladan, farzand orzusidan ayrilgan, ammo shu yo‘qotishlariga qaramay Vatanni himoya qilishga bel bog‘lagan inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol kishi askar obrazida tasvirlangan asarlar urush mavzusini yanada ta’sirchan, yanada insoniy qirralar bilan boyitadi. Bu obrazlar orqali nafaqat qahramonlik, balki mehr, sabr-toqat, hayot uchun kurashish, insoniy qadriyatlarga sadoqat singari fazilatlar ham ochib beriladi. Ayol askar obrazi adabiyotda ikki xil ruhiyatni uyg‘otadi: bir tomondan, ayolning erkaklar qatori jang maydonida ko‘rsatgan jasorati o‘quvchini hayratga soladi, ikkinchi tomondan esa, uning qalbidagi mehribonlik va insoniylik urush fojiasini yanada chuqur his qilishga majbur etadi. Shu bois ayol askar obrazlari adabiyot tarixida nafaqat qahramonlik timsoli, balki insoniylik va mehribonlik ramzi sifatida ham abadiy yashab kelmoqda.

O‘zbek xalqi tarixida ayollar har doim matonat, sabr-toqat va fidoyilik timsoli sifatida e’zozlanib kelgan. Bu fazilatlar Ikkinchi jahon urushi yillarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ldi. Erkaklar safda jang qilayotgan bir paytda, ko‘plab ayollar ham frontga otlanib,

erkaklar bilan yelkama-yelka vatan mudofaasida qatnashdilar. Ularning orasida Zebo G‘aniyeva kabi jasur qizlar ham bor edi. U snayper sifatida frontda xizmat qilib, o‘zining qahramonligi bilan nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun Sovet Ittifoqi askarlarining faxriga aylangan. Bunday jasoratli qizlarning ismi tarix sahifalariga oltin harflar bilan yozilgan bo‘lsa, ularning siymosi adabiyotimizda ham yorqin obraz sifatida aks etdi.

Adabiyotda ayol askar obrazi ko‘pincha ikki tomonlama yondashuv asosida gavdalanadi. Bir tomondan, ular jangchi, vatanparvar, mard va jasur insonlar sifatida tasvirlanadi. Qurol ko‘tarib, dushmanga qarshi kurashayotgan ayol qiyofasi o‘quvchini hayratga soladi, qalbida iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ikkinchi tomondan esa yozuvchilar ayollarning mehribon, nozik, insoniy his-tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan qiyofasini ham unutmaydilar. Shu bois urush maydonida ham ayol qalbining tabiiy sezgirligi, onalik tuyg‘usi, sevgi va sadoqatga intilishi tasvirlanadi. Bu ikki qutb obrazni yanada boyitadi, unga hayotiy kuch beradi.

Ayol askar obrazi, avvalo, urushning naqadar shafqatsiz ekanini ko‘rsatadi. Chunki tabiatan mehribonlik va tinchlik timsoli bo‘lgan ayollarni ham qurol ko‘tarishga majbur etgan kuch - bu urushning o‘zi. Shunday qilib, yozuvchilar bunday obraz orqali urushning fojeasini yanada chuqurroq ochadilar. Ayolning frontda halok bo‘lishi yoki yaralanishi, uning ortida qolgan onasi, farzandi yoki yaqinlarining iztiroblari asarda katta ruhiy yuk vazifasini bajaradi.

O‘zbek adabiyotida urush mavzusiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarda ayol askar siymosi uchraydi. Ular ko‘pincha qahramonlik va fidoyilik timsoli bo‘lsa-da, shu bilan birga urushning insoniy taqdirlarni izdan chiqaruvchi, ayollar hayotini ham ostin-ustin qiluvchi dahshatli hodisa ekanini ifodalaydi. She’riyatda ayol askar qahramonligi ko‘proq lirizm bilan boyitilib, ona vatanga sodiqlik, mehr va or-nomus timsolida madh etiladi. Nasrda esa ularning jang maydonidagi jasorati, oddiy hayotdagi armonlari, taqdirlaridagi iztiroblar realistik talqinda ifodalanadi.

Shunday qilib, Zebo G‘aniyeva singari tarixiy shaxslar obrazi o‘zbek adabiyotida ham o‘z aksini topib, ayol askar qiyofasini yanada yuksak darajada gavdalantirdi. Bu obraz bugun ham yosh avlodni Vatanga muhabbat, jasorat, sadoqat va matonat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ayolning jangchi sifatida tasvirlanishi – bu bir tomondan xalqning mardligi va sabr-toqatini, ikkinchi tomondan urushning naqadar shafqatsiz va ayanchli ekanini badiiy ifodalashning yorqin vositasidir.

Turli madaniyatlarda askar obrazi turlicha talqin qilinadi. Sharq adabiyotida askar ko‘pincha fidoyilik, itoatkorlik va mardlik ramzi sifatida tasvirlansa, G‘arb adabiyotida ko‘proq individualistik va tanqidiy yondashuv ustunlik qiladi. Ko‘p millatli armiyalar haqidagi asarlarda etnik xilma-xillik va uning urushdagi ahamiyati yoritiladi. Sharq adabiyotida askar ko‘pincha fidoyilik, itoatkorlik, yurt va din yo‘lida jonini tikkan mard sifatida talqin etiladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida jangchi obrazlari ko‘proq yuksak axloqiy g‘oya - adolat, xalqni himoya qilish, yovuzlikka qarshi kurash ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Turk xalqlar dostonlarida (masalan, “Alpomish” yoki “Manas”) jangchi – vatanparvar, qahramon, xalqi uchun o‘zini qurbon qilishga tayyor shaxsdir. Sharqona talqinda askar – bu shaxsiy manfaatini emas, balki jamoaning saodati va yurtning sha’nini himoya qiluvchi timsol.

**Xulosa -** Xulosa qilib aytganda, Sharqda askar - fidoyilik va itoatkorlik ramzi, G‘arbda - shaxsiy kechinmalar, urushning absurdligi va insoniy fojialar markazida turadigan obrazdir. Ko‘p millatli armiyalarda esa askarning obraziga xalqlar o‘rtasidagi birdamlik, madaniy xilma-xillik va umumiy maqsad yo‘lida kurashish g‘oyasi qo‘shiladi. Bu xilma-xillik askar obrazini universal, shu bilan birga har bir madaniyatga xos tarzda boyitib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. Toshkent: MERIYUS, 2015. – 288 b.

2. G‘afur G‘ulom. “Sen yetim emassan” asari “ Bolalar’’ hikoyasi, 1942. – 15 b.
3. Hamid Olimjon “Vatan” sheriy to’plam . Toshkent: “Fan” 1935. – 35 b.
4. Mirtemir. “Poytaxt” sheriy to’plam. Toshkent: “Fan” 1935. – 62 b.
5. Abdulla Qahor “Og’riq tishlar” hikoyasi. Toshkent: “Fan” 1954. – 28 b.
6. Tog’ay Murod “Otamdan qolgan dalalar’’ - Toshkent “ Zukko kitobxon” 2022. –352 b.